

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.FM/T.09.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

ESHDAVLATOV ZARIFJON ZAFAR O‘G‘LI

**YORIQ-G‘OVAK MUHITDA ANOMAL MODDA KO‘CHIRISH
MASALALARINI YECHISH**

01.02.05 – Suyuqlik va gaz mexanikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Eshdavlatov Zarifjon Zafar o'g'li

Yoriq-g'ovak muhitda anomal modda ko'chirish masalalarini yechish 3

Эшдавлатов Зарифжон Зафар оглы

Решение задач аномального переноса вещества в трещиновато-пористых средах..... 21

Eshdavlatov Zarifjon Zafar ugli

Solution of anomalous solute transport problems in fractured-porous media..... 39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.FM/T.09.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

ESHDAVLATOV ZARIFJON ZAFAR O‘G‘LI

**YORIQ-G‘OVAK MUHITDA ANOMAL MODDA KO‘CHIRISH
MASALALARINI YECHISH**

01.02.05 – Suyuqlik va gaz mexanikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/FM800 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (O'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xo'jayorov Baxtiyor

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nazarov Umarali Abduvaxobovich

Fizika-matematika fanlari doktori, dotsent

Djabarov Mamasoli Sadikovich

Fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat transport universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.FM/T.09.03 raqamli Ilmiy kengashning «11» sentabr 2026-yil soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-11-40, faks: (+99866) 239-11-40, 239-12-47, e-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (56 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-17-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «26» avgust kuni tarqatildi.
(2026-yil «26» avgust dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi).



R.I.Xalmuradov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

O'.A.Nishonov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
fizika-matematika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

J.Akilov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
fizika-matematika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda aholi sonining ortishi, iqlim o'zgarishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi va antropogen bosimning kuchayishi natijasida toza ichimlik suvi tanqisligi muammosi tobora ortib bormoqda, sanoat chiqindilari ta'sirida yer osti suv havzalarini ifloslanishini oldini olish va yer ostida suyuqlik tarkibidagi ifloslantiruvchi moddalar ko'chishi masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda "dunyo aholisining 30%ga yaqini "o'ta yuqori" suv tanqisligi sharoitida yashaydi. BMTning 2025-yilga mo'ljallangan "Jahon suv resurslari to'g'risidagi hisoboti"ga ko'ra, chuchuk suv resurslarining 72% qishloq xo'jaligida, 15% sanoatda va 13% maishiy ehtiyojlar uchun ishlatiladi. 2000-yildan 2021-yilgacha global suv iste'moli 14%dan yiliga o'rtacha 0,7%ga oshdi. Tog'lar va muzliklar dunyodagi chuchuk suvning 60 foizini ta'minlaydi va 3 milliarddan ortiq odam uchun asosiy hayot manbai hisoblanadi. Biroq, iqlim o'zgarishi, muzliklarning jadal erishi va ekotizimlarning tanazzulga uchrashi suv resurslarining barqarorligiga jiddiy tahdid solmoqda"¹. Bu borada, jumladan, suyuqlik tarkibidagi har xil zararli moddalarning fraktal tuzilishli yoriq-g'ovak muhitlarda anomal harakatini ifodalovchi matematik modellarni ishlab chiqish, zararli zarralar konsentratsiyasi maydonlarini baholash, yoriqdan g'ovak blokka ko'chib o'tuvchi modda miqdorini aniqlash hamda mos hisoblash algoritmlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda yoriq-g'ovak muhitlarda anomal modda ko'chishi jarayonlarini matematik modellashtirish nazariyasi va unga mos hisoblash usullarini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlar yer osti suvlari harakati, uglevodorod konlarini o'zlashtirish, geotexnologik jarayonlar, ekologik monitoring hamda kimyoviy reagentlarning g'ovak muhitlarda tarqalish qonuniyatlarini aniqlash bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu sohada, jumladan, modda ko'chishi jarayonlarida adsorbsiya va desorbsiya hodisalarini hisobga olgan hamda hisobga olmagan matematik modellarni ishlab chiqish, ularni kasr tartibli differensial tenglamalar asosida takomillashtirish, anomal diffuziya mexanizmlarini aniq tavsiflash, yuqori unumdor hisoblash texnologiyalaridan foydalanish, samarali sonli algoritmlar va zamonaviy dasturiy ta'minotni yaratish hamda ularning aniqligi va hisoblash barqarorligini ta'minlash dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda g'ovak muhitda modda ko'chishi va suyuqliklar sizilishi jarayonlarini sonli tadqiq etish, ularning matematik modellarini ishlab chiqish hamda amaliy masalalarni yechishga xizmat qiluvchi samarali hisoblash algoritmlarini yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, "Respublika aholisining ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasini 87 foizga yetkazish, 32 ta yirik shaharlar va 155 ta tuman markazlarida oqova suv

¹ Birlashgan Millatlar Tashkilotining dunyo miqyosidagi suv resurslari holati to'g'risidagi ma'ruzasi, 2024-y, <https://www.unwater.org/publications/un-world-water-development-report-2024>

tizimlarini yangilash...”² bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Xususan, yer osti suvlari ifloslanish darajasini aniqlashda adsorbsiya hodisalarini hisobga olish, bir jinslimas suyuqliklarning ko'chishi va sizishi jarayonlariga muhit fraktalligi ta'sirini baholash bo'yicha hisoblash tajribalarini o'tkazish imkoniyatini beruvchi samarali algoritm va dasturiy ta'minotni yaratish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi PQ-5-son “Quyi bo'g'inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori, 2023-yil 1-apreldagi PQ-107-son “Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarori, 2023-yil 12-oktabrdagi PF-169-son “Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni, 2022-yil 7-iyuldagi PQ-309-son “Neft va gaz sohasida ta'lim-ishlab chiqarish klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarorlari hamda maskur faoliyatga tegishli boshqa normativ huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. So'nggi yillarda sizish va ko'chish jarayonlarining matematik modellarini ishlab chiqish va takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, tabiiy yoriq-g'ovak muhitlarda kuzatiladigan moddaning anomal ko'chishi va anomal sizish jarayonlarini modellashtirish va sonli realizatsiya qilish G.E.Grisak, J.F.Pickens, J.Bear, M.Th.Van Genuchten, D. H.Tang, E.O.Frind and E.A.Sudicky, K.H.Coats, B.D.Smith, D.Reynolds, D.F.Young, A.Suzuki, A.S.Fomin, V.A.Chugunov, T.Hashida, B.Berkowitz, S.K.Matthai, A.Mezentsev, E.Unsal, S.K.Matthaii, M.J.Blunt, Y.W.Tsang, C.F.Tsang, I.Neretnieks, M.Selim, A.D.Benson, M.M.Meerschaert, W.S.Wheatcraft, F.Huang, F.Liu, M.Sahimi, R.Schumer, B.Baeumer, N.R.Horne, H.Zhan, B.F.A.Tompson kabi boshqalar olimlarning ishlari mavzusi hisoblanadi.

Respublikamizda F.B.Abutaliyev, E.B.Abutaliyev, J.F.Fayzullayev, N.M.Muhidinov, R.Sadullayev, I.Alimov, B.X.Xo'jayorov, J.Akilov, N.Ravshanov, I.K. Xujayev, S.Xudayqulov, Z.Malikov, Sh.Qayumov, V.F.Burnashev va boshqa olimlar g'ovak muhitda suyuqlik va gazlar sizishi jarayonlarini o'rganish va ularni bashorat qilishga qaratilgan matematik modellar va hisoblash usullarini yaratish orqali ushbu sohaga katta hissa qo'shdilar.

Yoriq-g'ovak muhitdagi suyuqlik sizishi va modda ko'chishi xususiyatlari, yoriqlar va g'ovak bloklar orasida sezilarli darajada farq qiladi. Shuning uchun, umumiy sizish va modda ko'chishi anomal xususiyatlarni namoyon qilishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, Darsi va Fik qonunlari yoriqlar va g'ovak bloklarda

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.05.2022 yildagi № PQ-257-son “Aholining ichimlik suv ta'minoti va oqova suv xizmatlari bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori

buziladi. Bunday anomal filtratsiya va modda ko‘chishining asosiy mexanizmlari yetarlicha o‘rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya yakunlangan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №19.12 “Muhandislik va tabiiy jarayonlarning matematik modellarini ishlab chiqish va sonli tahlil qilish” (2000-2018-yy.), FZ-2020092877 “Bir jinsli bo‘lmagan g‘ovak muhitlarda moddalarning anomal ko‘chishi va suyuqliklarning filtratsiyasi jarayonlarining matematik modellarini tuzish va sonli tahlil qilish” (2022-2027-yy.) mavzularidagi loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yoriq-g‘ovak muhitning fraktalligini, adsorbsiya hodisalarini, anomal diffuziyani hisobga olgan holda, yoriq-g‘ovak muhitda moddalarning anomal ko‘chishi va suyuqlik harakatining matematik modellarini takomillashtirish, shuningdek, masalalarni sonli yechish uchun samarali algoritmlarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yoriq-g‘ovak muhitlarning nazariy modellari va tadqiqot usullariga asoslangan holda anomal modda ko‘chish jarayonlarini tahlil qilish va mavjud modellarni kasr hosilali differensial tenglamalar asosida takomillashtirish;

yoriq-g‘ovak muhit elementida modda ko‘chirish jarayonlarini o‘rganish va yoriqda ham, g‘ovak blokda ham muhit fraktalligini hisobga olgan holda modda ko‘chish masalalarini yechish hamda muhit fraktalligini ko‘chish jarayonlariga ta’sirini baholash;

muvozanat va nomuvozanat adsorbsiya hodisasini hisobga olgan holda anomal modda ko‘chishining asosiy xususiyatlarini (konsentratsiya maydonlari, muhitlar orasidagi modda almashish va boshqalar) aniqlash;

yoriq-g‘ovak muhit elementida aktiv modda ko‘chishi masalalarini yechish va aktiv modda bilan tog‘ jinsi reaksiyasi natijasida g‘ovak blokning g‘ovakligi o‘zgarishini aniqlash;

tog‘ jinsi va aktiv modda reaksiyasi natijasida suyuqlikka ajralib chiqadigan muallaq zarralar konsentratsiyasining modda ko‘chishi jarayoniga ta’sirini baholash.

Tadqiqot obyekti fraktal yoriq-g‘ovak muhit, to‘yingan birjinsli bo‘lmagan suyuqlik.

Tadqiqot predmeti matematik va gidrodinamik modellar, bitta yoriq va unga tutash g‘ovak blokda modda ko‘chishi jarayonlari.

Tadqiqot usullari. Mexanikaning fundamental qonunlari va qo‘shimcha fenomenologik gipotezalar asosida fraktal yoriq-g‘ovak muhitlarda gidrodinamik modellar, yoriq-g‘ovak muhitlarda anomal modda ko‘chishi va sizishi nazariyasining asosiy tenglamalari, matematik va sonli modellashtirish usullar.

Dissertatsiya tadqiqotining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

muhitning fraktalligini hisobga olgan holda modda ko‘chishi masalalari yechilgan va yoriq-g‘ovak muhitning fraktal tuzilishi va anomal modda ko‘chish xususiyatlarining jarayon dinamikasi, konsentratsiya taqsimoti hamda ko‘chish parametrlariga ta’siri baholangan;

bitta yoriq va unga qo'shni g'ovak blokdan tashkil topgan yoriq-g'ovak muhit elementida muvozanat va nomuvozanat adsorbsiya hodisalarini hisobga olgan holda moddaning anomal ko'chishi modellari kasr hosilali differensial tenglamalar yordamida takomillashtirilgan;

fraktal strukturali yoriq-g'ovak muhit elementida modda ko'chishi masalasi adsorbsiya hodisasini hisobga olgan holda qaralgan hamda adsorbsiya hodisasi modda konsentratsiyasining taqsimlanish jarayonining umumiy sekinlashishiga, ya'ni retardatsion effektlarga olib kelishi aniqlangan;

yoriq-g'ovak muhit elementida aktiv moddalarning ko'chirishda moddaning tog' jinsi bilan kimyoviy reaksiyasi ta'sirida g'ovak blokning g'ovakligi o'zgarishi, bu esa ko'chish jarayonlarini jadallashtirishi aniqlangan;

yoriq-g'ovak muhitda aktiv modda ko'chishi jarayonida tog' jinsining erimaydigan zarralari ajralib chiqishi natijasida g'ovak va yoriqlarning kolmatatsiyaga uchrashi filtratsion xossalar hamda modda almashinuvi intensivligini pasaytirib, aktiv moddaning muhit bo'ylab tarqalishini cheklashi va natijada tog' jinsining erish samaradorligini sezilarli darajada kamaytirishi baholangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

fraktal strukturali yoriq-g'ovak muhit elementida konvektiv diffuziya yondashuvi asosida moddaning anomal ko'chishi masalalarini hisoblash algoritmi ishlab chiqilgan;

adsorbsiya hodisalarini hisobga olgan holda yoriq-g'ovak muhit elementida aktiv va passiv moddalarning anomal ko'chishining matematik modellari takomillashtirilgan;

muhitning fraktal tuzilishini hisobga olgan holda moddaning anomal ko'chishi masalasini hisoblash uchun dasturiy vositalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Yoriq-g'ovak muhitda anomal modda ko'chishi tenglamalarini shakllantirishda tadqiqot natijalarining ishonchliligi, takomillashgan modellarini qurishda fundamental saqlanish qonunlari va fenomenologik munosabatlardan foydalanilganligi, ularning ishonchliligi tutash muhitlar mexanikasining asosiy tamoyillari - massa saqlanish qonunlari, anomal Fik qonuniga asoslanadi. Har bir gipotezada fenomenologik yondashuv qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati fraktal tuzilishga ega bo'lgan yoriq-g'ovak muhitda moddaning anomal ko'chishining matematik modellarini takomillashtirishdan iborat. Takomillashtirilgan matematik modellar va hisoblash algoritmlari yoriq-g'ovak muhitda modda ko'chishi va suyuqlik sizishi nazariyasiga qo'shilgan aniq hissa ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalardan neft va gaz qazib olish jarayonlarini ikkilamchi va uchlamchi usullar bilan tahlil qilishda, oqova va ichimlik suvlarini tozalash jarayonlarini sifat va miqdoriy tahlil qilishda, gidrologiyada, shuningdek, yoriq-g'ovak muhit elementida ko'chish hodisalarini o'rganishga uslubiy yondashuvni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Modda ko‘chish jarayonlarining matematik modellari, sonli usullari va yoriq-g‘ovak muhit elementidagi anomaliklarni hisobga oluvchi algoritmlar asosida:

- № FZ-202009211 “Aralash turdagi tenglamalar uchun xarakteristika va buzilish chizig‘ida Frankl va Bitsadze-Samarskiy shartlari berilgan masalalar korrektiligini noklassik singulyar integral tenglamalarga olib kelib o‘rganish” fundamental granti doirasida chegaraviy va xarakteristik chiziqlarda noodatiy shartli masalalarni yechish uchun kasr tartibli xususiy hosilali tenglamalarni sonli yechish algoritmlari joriy qilingan (Termiz davlat universiteti, 2024-yil 17-oktabrdagi ma‘lumotnoma). Natijada aralash tipdagi tenglamalarning singulyar nuqtalari va sinish chiziqlaridagi kompleks shartlarni o‘rganishda singulyar integral tenglamalar va kasr tartibli differensial tenglamalar yechimlarini samarali tavsiflash, shuningdek, sinish chizig‘ida aralash tipdagi tenglamalarning xarakteristiklari va Frankl hamda Bitsadze-Samarskiy shartlariga ega bo‘lgan masalalarning korrektiligini samarali o‘rganish, ularni noklassik singulyar integral tenglamalarga keltirish va ish, mehnat sarfini 7%ga tejash imkonini bergan;

- yoriq-g‘ovak muhitda moddaning anomal ko‘chish jarayonini tavsiflovchi kasr differensial tenglamalar uchun masalaning sonli yechimiga hisoblash algoritmi va dasturiy mahsulot kasr differensial tenglamalar masalasini yechish uchun No.GP-150/2023 grant bo‘yicha tadqiqotlarda qo‘llanildi (Qirol Abdul Aziz universiteti, Saudiya Arabistoni, 2025-yil 27-martdagi ma‘lumotnoma). Sonli algoritm va dasturiy ta‘minotdan foydalanish yer osti qatlamlarida radioaktiv moddalarning tarqalishini masofasini bashorat qilish va ko‘chgan modda miqdorini baholash hamda hisoblash vaqtini 1,7 marta qisqartirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta, jumladan, 6 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan hamda EHM uchun yaratilgan dasturiy mahsulotga guvohnoma olingan (№ DGU 35052).

Dissertatsiya ishining hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 119 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Dissertatsiyaning qisqacha asosiy mazmuni berilgan.

Dissertatsiyaning “**Yoriq-g‘ovak muhitlarda modda ko‘chishi**” deb nomlangan birinchi bobida suyuqliklar filtratsiyasi jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari, yoriq-g‘ovak muhitda modda ko‘chishi va ularni modellashtirish masalalari tahlili keltirilgan. Yoriq-g‘ovak muhitning gidrodinamik modellari va ularning yechimlari tahlil qilingan. Fraktal strukturali yoriq-g‘ovak muhitda moddaning anomal ko‘chishining matematik modellari va qo‘yilgan masalalarni yechishning sonli usullari tahlil qilingan.


1-paragrafda yoriq-g‘ovak muhitda suyuqlik filtratsiyasi va modda ko‘chishi xususiyatlarining tahlili keltirilgan.

2-paragrafda yoriq-g‘ovak muhitda modda ko‘chishining gidrodinamik modellari tahlil qilingan.

3-paragrafda moddaning anomal ko‘chishi modellari tahlil qilingan.

4-paragrafda kasr hosilali modellar asosida moddaning ko‘chishi masalalarini yechishning sonli usullari keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Yoriq-g‘ovak muhit elementida moddaning anomal ko‘chishi masalalari**” deb nomlangan ikkinchi bobida bitta yoriq va unga tutashgan g‘ovak blok (matritsa)dan iborat fraktal strukturali yoriq-g‘ovak muhit elementida modda ko‘chishi masalasi qo‘yilgan va sonli yechilgan. Muvozanat va nomuvozanat adsorbsiya hodisalarini hisobga olgan va olmagan holda moddaning anomal ko‘chishi jarayoni o‘rganildi.



1-rasm. Yoriq-g‘ovak muhit elementi

2.1-paragrafda bitta yoriq va unga tutashgan g‘ovak blokdan (matritsa) iborat yoriq-g‘ovak muhit elementi ko‘rib chiqiladi (1-rasm). Yoriq yarim cheksiz bir o‘lchovli obyektidir, shuning uchun uning kesimi bo‘ylab modda va suyuqlik oqimining taqsimlanishi bir xil deb hisoblanadi. G‘ovak blok koordinata tekisligining birinchi choragini egallaydi. Suyuqlik yoriqda berilgan doimiy v tezlik

bilan oqadi. Yoriqning $x=0$ oxiridan modda konsentratsiyasi c_0 bo'lgan suyuqlik yetkazib beriladi. Dastlab, yoriq va g'ovak blok toza (moddasiz) suyuqlik bilan to'ldirilgan deb faraz qilinadi. Yoriqda moddaning konvektiv-diffuzion ko'chishi sodir bo'ladi, g'ovak blokda esa faqat diffuzion ko'chish sodir bo'ladi. G'ovak blokda ko'chish jarayoni anomal hisoblanadi, yoriqda esa jarayon hech qanday anomal hodisalarsiz sodir bo'ladi.

Yoriq-g'ovak muhit elementida modda ko'chishi va suyuqlik oqishi tenglamalari quyidagicha olinadi:

$$\frac{\partial c_f}{\partial t} + v \frac{\partial c_f}{\partial x} = D_f \frac{\partial^2 c_f}{\partial x^2} + m_0 D_m \frac{\partial^{1-\gamma}}{\partial t^{1-\gamma}} \left(\frac{\partial^\delta c_m}{\partial y^\delta} \right) \Bigg|_{y=0}, \quad (1)$$

$$\frac{\partial^\gamma c_m}{\partial t^\gamma} = D_m \frac{\partial^{1+\delta} c_m}{\partial y^{1+\delta}}, \quad (2)$$

bu yerda $c_f = c_f(t, x)$ – yoriqdagi modda konsentratsiyasi, m^3/m^3 ; $c_m = c_m(t, x, y)$ – matritsadagi modda konsentratsiya, m^3/m^3 ; v – suyuqlikning harakat tezligi, m/s ;

D_m – matritsadagi anomal diffuziya koeffitsienti, $m^{1+\delta}/s^\gamma$; m_0 – matritsa g'ovaklik koeffitsiyenti, t – vaqt, s ; x – koordinata.

Yoriq bir o'lchovli obyekt sifatida modellashtirilganligi sababli, uning kesimi bo'yicha konsentratsiya taqsimoti hisobga olinmaydi.

$t > 0$ momentda $x=0$ uchidan boshlab muhitga doimiy c_0 konsentratsiyali modda suyuqligi berilsin. U holda boshlang'ich va chegaraviy shartlari

$$c_f(0, x) = 0, \quad c_m(0, x, y) = 0, \quad (3) \quad c_f(t, 0) = c_0, \quad c_f(t, \infty) = 0, \quad (4)$$

$$c_m(t, x, 0) = c_f(t, x), \quad c_m(t, x, \infty) = 0. \quad (5)$$


ko'rinishga ega bo'ladi.

(1), (2) tenglamalar (3) - (5) boshlang'ich va chegaraviy shartlar bilan chekli ayirmalar usuli bilan yechiladi. c_m, c_f konsentratsiya maydonlari aniqlanadi va ikkita konsentratsiya nuqtasi c_m uchun y yo'nalishdagi o'zgarish profillari ko'rsatiladi.

2-rasmda anomal holat uchun c_m konsentratsiya sirlari ko'rsatilgan, bu yerda γ qiymatlari birlikdan kamayadi. γ ni 1 dan kamaytirish g'ovak blokda konsentratsiya profillarining tarqalishini sekinlashtiradi. Natijada, yoriqda moddaning tarqalishi jarayoni tezlashadi.


1-jadval. Rejim o'zgarishi sodir bo'ladigan y ning qiymatlari

x, m	$\gamma = 1$ dan $\gamma = 0,9$ ga	$\gamma = 1$ dan $\gamma = 0,8$ ga	$\gamma = 1$ dan $\gamma = 0,7$ ga
0,1	0,00395300	0,0027371	0,00196010
0,3	0,00937385	0,0068135	0,00511980
0,5	0,01280000	0,0097042	0,00759160
0,7	0,01520000	0,0119000	0,00964800




2-rasm. $\delta=1$, $t = 3600$ s va γ ning turli qiymatlarida c_m konsentratsiya sirlari.

c_m ning koordinatalarga bog‘liqligini yaxshiroq ko‘rsatish uchun, 3-rasmda ikkita $x = 0,3$ m, $x = 0,5$ m, nuqta uchun uning y yo‘nalishi bo‘yicha o‘zgarishi ko‘rsatilgan. Rasmdan ko‘rinib turibdiki, γ 1 dan kamayganda, konsentratsiya profillari odatda kichikroq qiymatlarni oladi. Biroq, yoriq yaqinida, γ 1 dan kamayganda, profillar katta qiymatlarni oladi. Natijada, γ kamayganda, konsentratsiya profillari c_m yoriqdan y ga oshish yo‘nalishi bo‘yicha yuqori konsentratsiyalardan pastroq konsentratsiyalarga almashadi. Bu almashishni aniqroq ko‘rsatish uchun 1-jadval tuzildi, unda γ 1 dan ma‘lum miqdorda kamayganda, x ning turli kesimlarida y ning qiymatlari berilgan.



3-rasm. $\delta=1$, $t = 3600$ s, $x = 0,3$ m (a), $x = 0,5$ m (b) da c_m konsentratsiya profillari.



4-rasm. $\delta = 1$ va γ ning turli qiymatlarida x bo'yicha Q (a) t bo'yicha $Q_{o\delta u}$ (б), Q_{cym} (B) modda sarflarining o'zgarishlari.

Shuni ta'kidlash kerakki, avvalgi holatdan farqli o'laroq, rejim o'zgarishi nisbatan katta y da sodir bo'ladi.

4-rasmda muhitning umumiy chegarasi orqali modda sarfi o'zgarishlari ko'rsatilgan.

Q joriy, $Q_{o\delta u}$ umumiy va Q_{cym} jamlanma nisbiy modda sarflari $y = 0$ chegara bo'ylab quyidagicha aniqlanadi

$$Q = -mD_m \frac{\partial^{1-\gamma}}{\partial t^{1-\gamma}} \left(\frac{\partial^\delta c_m}{\partial y^\delta} \right) \Big|_{y=0}, \quad Q_{o\delta u} = \int_0^\infty Q dx, \quad Q_{cym} = \int_0^t Q_{o\delta u} dt = \int_0^t \int_0^\infty Q dx dt. \quad (6)$$

4-rasmdan ko'rinib turibdiki, γ 1 dan kamaygan sari, $y = 0$ orqali oqib o'tuvchi modda massasi o'tishi ortadi. Bu g'ovak blokda "sekin" diffuziya tufayli $y = 0$ umumiy chegara bo'ylab nisbatan $\partial^\delta c_m / \partial y^\delta$ katta konsentratsiya gradiyentlari hosil bo'lishi bilan izohlanadi. O'z navbatida, chegara bo'ylab umumiy va jamlanma modda sarfi ham ortadi (6.b, c-rasm).

2.2-paragrafda, §2.1 da ko'rib chiqilgan masala yanada umumiy holda umumlashtiriladi, bu yerda ko'chishning anomalligi yoriqda ham, g'ovakli blokda ham hisobga olinadi.


Yoriqdagi (1) tenglama quyidagicha o'zgartiriladi

$$\frac{\partial^\alpha c_f}{\partial t^\alpha} + \bar{v} \frac{\partial c_f}{\partial x} = D_f \frac{\partial^\beta c_f}{\partial x^\beta} + m_0 D_m \frac{\partial^{1-\gamma}}{\partial t^{1-\gamma}} \left(\frac{\partial^\delta c_m}{\partial y^\delta} \right) \Big|_{y=0}, \quad 0 < \delta \leq 1, \quad (7)$$

va g'ovak blokda (2) tenglama 2.1-paragrafdagi kabi qo'llaniladi.


(7) dagi $\bar{v}$ – suyuqlikning harakat tezligi, β , δ – koordinata bo'yicha hosila tartiblari ($0 < \alpha, \gamma, \delta \leq 1$, $1 < \beta \leq 2$).

(3)-(5) shartlarda (7), (2) masalalar chekli ayirmalar usuli bilan yechiladi.



5-rasm. $t = 3600$ s, $\beta = 2$, $\gamma = 0,9$, $\delta = 1$ va α ning turli qiymatlarida c_m konsentratsiya sirtlari.

$\gamma = 0,9$ va α ning turli qiymatlari uchun hisoblash natijalari 5-rasmda ko‘rsatilgan. Oldingi paragrafda γ ni 1 dan kamaytirish g‘ovak blokda “sekin” diffuziyaga olib kelishi ko‘rsatilgan edi. Bu yerda bu effekt α qiymati 1 dan kamayganda yoriqdagi “sekin” diffuziya bilan birgalikda ko‘rib chiqiladi. Bir tomondan, g‘ovak blokda “sekin” diffuziya yoriqdagi konsentratsiya qiymatlarining haddan tashqari baholanishiga olib kelishi kerak ($y = 0$ dagi c_m sirt chiziqlari). Boshqa tomondan, yoriqdagi “sekin” diffuziya odatda yoriqda moddaning sekinroq tarqalishiga olib keladi. Shunday qilib, bu yerda bizda ikkita qarama-qarshi effekt mavjud. Tabiiyki, ulardan birining ustun ta’siri ko‘chish xususiyatini belgilaydi. Ushbu baholash 6-rasmdagi grafiklar yordamida qulay tarzda taqdim etilgan.



6-rasm. $t = 3600$ s, $\beta = 2$, $\gamma = 0,9$, $\delta = 1$, $x = 0,3$ m (a), $x = 0,5$ m (b). da c_m konsentratsiya profillari.

2.3-paragrafda muvozanat adsorbsiyasini hisobga olgan holda yoriq-g‘ovak muhitda moddaning anomal ko‘chishi masalasi ko‘rib chiqiladi.

Adsorbsiya Genri izotermasiga muvofiq hisobga olinadi, ya’ni

$$s_f = k_f c_f, \quad s_m = k_m c_m, \quad k_f, k_m = \text{const}, \quad (8)$$

bu yerda s_f va s_m mos ravishda yoriq va g'ovak blokdagi muhitning birlik massasiga to'g'ri keladigan adsorblangan modda hajmi, k_m , k_f - matritsadagi va yoriqdagi adsorbsiya koeffitsiyentlari bo'lib, ular moddaning va Tog' jinsi yuzasining fizik xossaligidir.

Modda ko'chish tenglamalarini quyidagi shaklda qabul qilamiz

$$\left(\frac{\partial^\alpha c_f}{\partial t^\alpha} + \rho \frac{\partial^\alpha s_f}{\partial t^\alpha} + v \frac{\partial c_f}{\partial x} \right) = D_f \frac{\partial^\beta c_f}{\partial x^\beta} + m_0 D_m \frac{\partial^{1-\gamma}}{\partial t^{1-\gamma}} \left(\frac{\partial^\delta c_m}{\partial y^\delta} \right) \Big|_{y=0}, \quad (9)$$

$$\frac{\partial^\gamma c_m}{\partial t^\gamma} + \rho \frac{\partial^\gamma s_m}{\partial t^\gamma} = D_m \frac{\partial^{1+\delta} c_m}{\partial y^{1+\delta}}, \quad (10)$$

bu yerda ρ – muhit zichligi, qolgan belgilashlar bir xil bo'lib qoladi.

(8) ni hisobga olgan holda, (9) va (10) tenglamalar quyidagicha yoziladi

$$\left(R_f \frac{\partial^\alpha c_f}{\partial t^\alpha} + v \frac{\partial c_f}{\partial x} \right) = D_f \frac{\partial^\beta c_f}{\partial x^\beta} + m_0 D_m \frac{\partial^{1-\gamma}}{\partial t^{1-\gamma}} \left(\frac{\partial^\delta c_m}{\partial y^\delta} \right) \Big|_{y=0}, \quad (11)$$


$$R_m \frac{\partial^\gamma c_m}{\partial t^\gamma} = D_m \frac{\partial^{1+\delta} c_m}{\partial y^{1+\delta}}, \quad (12)$$

bu yerda $R_f = 1 + \rho k_f$, $R_m = 1 + \rho k_m$ – retardatsiya koeffitsiyentlari.

Suyuqlik oqimi va modda ko'chishi shartlari §2.1 va §2.2 da bo'lgani kabi qabul qilingan. Natijada, boshlang'ich va chegara shartlari o'zgarishsiz qoladi.


(3) - (5) shartlarda (11), (12) masalalar chekli ayirma usuli bilan yechiladi.

7-rasmda (11), (12) tenglamalarda vaqt bo'yicha hosila tartiblar kamaytirilganda holda c_m va s_m sirtlar ko'rsatilgan. Adsorbsiya koeffitsiyenti $k_m = k_f = k$ ning uchta qiymati ko'rib chiqiladi. 8-rasmda turli sirlarga mos keluvchi sirtlarning vertikal kesimlari ko'rsatilgan. Grafiklar shuni ko'rsatadiki, k ning ortishi bilan c_m ning qiymatlari kamayadi, s_m ning qiymatlari esa ortadi. Bu natija bir qarashda yaqqol ko'rinadi, lekin bu yerda c_m va s_m ning x o'qi bo'ylab turli kesimlarda o'zgarish xarakterini farqlash mumkin. Oldingi natijalardan ma'lumki, α va γ ning kamayishi yoriq va matritsadagi “sekin” diffuziyani xarakterlaydi.



7-rasm. $t = 3600$ s, $\alpha = 0,8$, $\beta = 2$, $\gamma = 0,8$, $\delta = 1$ va k ning turli qiymatlarida

c_m (a) va s_m (b) sirtlari



8-rasm. $t = 3600$ s, $\alpha = 0,8$, $\beta = 2$, $\gamma = 0,8$, $\delta = 1$, $x = 0,3$ m (a, b),
 $x = 0,5$ m (b, r) da c_m va s_m profillari.

2.4-paragrafda nomuvozanat adsorbsiyani hisobga olgan holda yoriq-g'ovak muhitda moddaning anomal ko'chishi masalasi ko'rib chiqiladi.

Quyidagi nomuvozanat adsorbsiya kinetikasi qo'llaniladi:

$$\frac{\partial^\alpha s_f}{\partial t^\alpha} = \alpha_f (k_f c_f - s_f), \quad (13)$$

$$\frac{\partial^\gamma s_m}{\partial t^\gamma} = \alpha_m (k_m c_m - s_m), \quad (14)$$

bu yerda α_f , α_m – mos ravishda yoriq va matritsadagi adsorbsiya jarayonlarining intensivligini tavsiflovchi adsorbsiya tezligi koeffitsiyentlari, ($s^{-\alpha}$).

2.1, 2.2 va 2.3-paragraflardagi boshlang'ich chegaraviy shartlaridan tashqari, quyidagi boshlang'ich shartlar qo'shiladi:

$$s_f(0, x) = 0, \quad s_m(0, x, y) = 0. \quad (15)$$


(3)-(5) va (15) shartlarda (9), (10) tenglamalarning sonli yechilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “Yoriq-g'ovak muhit elementida aktiv moddaning anomal ko'chishi”da bitta yoriq va unga tutash matritsaga kislota ta'siri o'rganiladi.

3.1-paragrafda bitta yoriq va uni o'rab turgan g'ovakli blok (matritsa)dan iborat yoriq g'ovak muhit elementida aktiv (konservativ bo'lmagan) moddaning suyuqlik bilan birga anomal ko'chishi masalasi ko'rib chiqiladi.

G'ovak blokda moddaning ko'chishi anomal Fik qonuni $J = mD_m \frac{\partial^{1-\gamma}}{\partial t^{1-\gamma}} \left(\frac{\partial^\delta c_m}{\partial y^\delta} \right)$

, $0 < \gamma \leq 1, 0 < \delta \leq 1$ ga muvofiq sodir bo'ladi, bu yerda J – g'ovak blokda modda oqimi, m –g'ovaklik, D_m – diffuziya koeffitsiyenti, c_m – g'ovak blokda modda konsentratsiyasi. y – yoriqqa ko'ndalang yo'nalish (9-rasm)



9-rasm. Yoriq-g'ovak muhit elementida aktiv moddaning ko'chishi sxemasi. $\boxed{\circ\circ\circ}$ – reaksiya natijasida o'zgargan matritsa zonasi, $\boxed{\bullet\bullet\bullet}$ – matritsaning o'zgarmagan zonasi.

Yuqoridagilarni va anomal hodisalarni hisobga olgan holda, yoriqdagi moddaning ko'chish tenglamasini quyidagicha olamiz:

$$\frac{\partial c_f}{\partial t} + v \frac{\partial c_f}{\partial x} = D_f \frac{\partial^2 c_f}{\partial x^2} + m D_m \frac{\partial^{1-\gamma}}{\partial t^{1-\gamma}} \left(\frac{\partial^\delta c_m}{\partial y^\delta} \right) \Big|_{y=0}, \quad (16)$$

bu yerda c_m – g'ovak blokda modda konsentratsiyasi, M^3/M^3 ; c_f – yoriqdagi modda konsentratsiyasi, M^3/M^3 ; D_f – yoriqdagi diffuziya koeffitsiyenti, $M^{1+\beta}/c$; v – suyuqlik tezligi, M/c ; D_m – matritsada anomal diffuziya koeffitsiyenti, $M^{1+\delta}/c^\gamma$; m – g'ovak blokning joriy g'ovakligi, t – vaqt, c ; x – koordinata; γ – vaqt bo'yicha hosila tartibi, β, δ – koordinata bo'yicha hosilalar tartiblari ($0 < \gamma, \delta \leq 1$, $1 < \beta \leq 2$).

G'ovakli blokda ko'chish tenglamasi quyidagicha

$$\frac{\partial^\gamma (m c_m)}{\partial t^\gamma} = -a_v E_f^0 \exp\left(-\frac{\Delta E}{RT}\right) c_m + D_m \frac{\partial}{\partial y} \left(m \frac{\partial^\delta c_m}{\partial y^\delta} \right), \quad (17)$$

bu yerda ρ_k – kislota aralashmasining zichligi, $J_k = \mu_k a_v R_A$ – hajm birligiga vaqt birligida sarflangan kislota massasi, $R_A = E_f \frac{c_m \rho_k}{\mu_k}$ – kimyoviy reaksiya tezligi,

$E_f = E_f^0 \exp\left(-\frac{\Delta E}{RT}\right)$, ΔE – aktivlashtirish energiyasi, R – gaz doimiysi, T – temperatura, a_v – solishtirma reaksiya yuzasi, μ_k – kislotaning molekulyar massasi.

Matritsa jinsining erishi natijasida g'ovaklikning o'zgarish tenglamasi quyidagicha tavsiflanadi


$$\frac{\partial^\gamma m}{\partial t^\gamma} = \frac{\beta_M}{\rho_M} a_v E_f^0 \rho_k \exp\left(-\frac{\Delta E}{RT}\right) c_m. \quad (18)$$

Yarim cheksiz muhit uchun boshlang'ich va chegaraviy shartlari quyidagicha:

$$\begin{aligned} t = 0: c_m = c_f = 0, m = m_0, c_f(t, 0) = c_0 = const, \\ c_f(t, \infty) = 0, c_m(t, x, 0) = c_f(t, x), c_m(t, x, \infty) = 0. \end{aligned} \quad (19)$$

$\beta_M, \rho_M, \rho_k, a_v, E_f^0, -\Delta E, R, T$ parametrlar berilgan bo'ladi. (16)-(19) masala sonli yechiladi va c_f, c_m, m maydonlar aniqlanadi.

Kislotaning tog' jinsi bilan reaksiyasi natijasida matritsa g'ovakligi o'zgaradi (10-rasm). γ ning qiymati kamayganda, matritsa g'ovakligining oshishi sekinlashadi.



10-rasm. $t = 3600$ c, $\beta = 2$, $\delta = 1$ va turli γ ($\gamma = 0,7$ (a), $\gamma = 0,8$ (b), $\gamma = 0,9$ (c), $\gamma = 1,0$ (d)) m g'ovaklik sirtlari.

3.2-paragrafda g'ovak blokni kislota bilan eritilganda kislota erimaydigan qattiq zarrachalar hosil bo'ladi deb hisoblanadi.

Bunday zarrachalarning massa balansi quyidagi tenglama bilan tavsiflanadi:

$$\frac{\partial^\gamma c_s}{\partial t^\gamma} = \frac{\beta_s \mu_k a_v R_A}{m \rho_s} - \frac{\beta_M}{m \rho_M} a_v E_f^0 \rho_k \exp\left(-\frac{\Delta E}{RT}\right) c_m c_s, \quad (20)$$

bu yerda c_s – erimaydigan zarrachalar konsentratsiyasi.

(16) - (20) masala (21) qo'shimcha shart bilan sonli yechiladi.

$$c_s(0, x, y) = 0 \quad (21)$$

3.3-paragrafda kislota ta'sirida tog' jinslaridan qattiq zarrachalarning ajralib chiqishi qaralgan. Bu zarrachalarning ba'zilar suyuqlikdan cho'kindiga o'tishi mumkin, bu esa g'ovak hajmining bir qismini egallaydi. Bu cho'kindi, g'ovaklarni tiqib qo'yish orqali, ham kislota eritmasining, ham ajralib chiqqan qattiq zarrachalarning tashilishini o'zgartiradi.

Bunday zarrachalarning massa balansi to'xtatilgan zarrachalar massasi va cho'kindi hajmini hisobga olgan holda

$$\frac{\partial^\gamma c_s}{\partial t^\gamma} = \frac{\beta_s a_v}{\rho_s m} E_f^0 \exp\left(-\frac{\Delta E}{RT}\right) c_m - \frac{\beta_M}{m \rho_M} a_v E_f^0 \rho_k \exp\left(-\frac{\Delta E}{RT}\right) c_m c_s - \frac{\lambda c_s}{m} \quad (22)$$

tenglama bilan tavsiflanadi.


Cho'kindi hosil bo'lishining quyidagi kinetika tenglamasidan foydalaniladi

$$\frac{\partial^\gamma \sigma}{\partial t^\gamma} = \lambda c_s, \quad (23)$$

bu yerda $\lambda(c^{-\gamma})$ – cho‘kindi hosil bo‘lish intensivligini tavsiflovchi koeffitsiyent, σ – birlik hajmdagi cho‘kindi hajmi, ya’ni cho‘kindining hajmiy konsentratsiyasi. Eng soddalashtirilgan holatda, $\lambda = \text{const}$ deb faraz qilinadi.

(19), (21) shartlariga quyidagi (24) shart qo‘shiladi.

$$\sigma(0, x, y) = 0 \quad (24)$$



11-rasm. $t = 3600$ c, $\beta = 2$, $\gamma = 1$ va turli δ ($\delta = 0,7$ (a), $\delta = 0,8$ (b), $\delta = 0,9$ (c), $\delta = 1,0$ (d)) σ cho‘kindi konsentratsiyasi sirtlari.

(22), (23) bilan (16)-(18) lar (19), (21), (24) shartlarda sonli yechiladi.

11-rasmdan ko‘rinib turibdiki, δ parametrini 1 dan kamaytirish g‘ovak blok ichidagi cho‘kma zarrachalar konsentratsiyasining sezilarli darajada oshishiga olib keladi. Bu holat kasr hosilali diffuziya modeliga xos bo‘lgan tez (anomal) diffuziya jarayoni bilan izohlanadi; ya’ni zarrachalarning muhit orqali tarqalishi intensivligi oshadi va bu ularning g‘ovak hajmida ko‘proq to‘planishi uchun sharoit yaratadi.

XULOSA

1. Ilmiy adabiyotlarda yoriq-g‘ovak muhitlarda modda ko‘chishi jarayoniga bag‘ishlangan masalalar o‘rganilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ko‘pchilik ishlarda modda ko‘chishi jarayoni klassik konveksiya-diffuziya yondashuvi asosida qaralgan, ammo, yoriq-g‘ovak muhitning fraktal xususiyatlari hisobga olingan holda yetarli darajada o‘rganilmagan.

2. Yoriq-g‘ovak muhitning fraktal xususiyatlarini hisobga olgan holda yoriq va g‘ovak bloklar uchun alohida differensial tenglamalar shakllantirilgan. Ushbu differensial tenglamalar muhitning murakkab geometrik tuzilishini va unda sodir bo‘ladigan anomal modda ko‘chishi jarayonlarini adekvat tavsiflash maqsadida kasr tartibli hosilalar yordamida takomillashtirilgan. Qo‘yilgan masalalar chekli

ayirmalar usuli yordamida sonli tahlil qilingan. Natijalarga ko'ra, matritsadagi vaqt bo'yicha hosilaning kasr tartibini 1 dan kamaytirganda g'ovak blokda sekin diffuziyalanish sodir bo'ladi va buning tasirida yoriqda tez diffuziyalanish sodir bo'lishi aniqlangan.

3. Yoriq va g'ovak muhitlarda modda ko'chishi jarayonini yanada to'liq tavsiflash maqsadida model muvozanat va nomuvozanat adsorbsiya jarayonlarini hisobga olgan holda takomillashtirilgan. Muvozanat adsorbsiyani tavsiflash uchun Genri izotermasi qo'llanilgan, bu esa past konsentratsiyalar sohasida adsorbsiya jarayonining chiziqli xususiyatlarini adekvat ifodalash imkonini bergan. Nomuvozanat adsorbsiya modeli esa adsorbsiya jarayonlarining kinetik cheklanishlarini hisobga olish orqali yoriq-g'ovak muhitlarda kuzatiladigan vaqt bo'yicha kechikish effektlarini tavsiflashga xizmat qilgan. Olib borilgan sonli tadqiqotlar natijasida muhitning fraktal xususiyatlari adsorbsiya jarayonining intensivligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlanib, fraktallik darajasi ortishi bilan adsorbsiya qobiliyatining kuchayishi va natijada moddaning muhit bo'ylab tarqalish tezligining kamayishi kuzatilgan.

4. Yoriq-g'ovak muhit elementida aktiv modda va tog' jinsi reaksiyasini hisobga olgan holda anomal modda ko'chishi jarayoni qaralgan. Jarayonga mos matematik model shakllantirilgan va sonli tahlil qilingan. Yoriq uchun yozilgan balans tenglamadagi koordinata bo'yicha kasr tartibni 2 dan kamaytirilgani sari aktiv modda yoriq bo'ylab kengroq yoyiladi va bu bilan matritsada diffuziyalanadigan modda miqdori ham ortishi ko'rsatilgan. Buning ta'sirida matritsaning g'ovakligi ko'proq o'zgarishi aniqlangan. G'ovak blok uchun yozilgan tenglamadagi fazoviy koordinata bo'yicha kasr hosila tartibining kamayishi bilan matritsada tez diffuziyalanish sodir bo'ladi. Natijada, g'ovaklikning oshishi tezlashishi aniqlangan.

5. G'ovak blokga kislota bilan ishlov berganda, kislotada erimaydigan qattiq zarrachalar hosil bo'ladi. Bu zarrachalar qisman muallaq holatda qoladi, boshqalari esa g'ovaklarda cho'kadi, ya'ni teshiklarga tiqilib qoladi. Bu ikki turdagi zarrachalar konsentratsiyasini hisobga olish uchun alohida differensial tenglamalar yozilgan. Bu differensial tenglamalar sonli yechilib, konsentratsiya maydonlari aniqlangan. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, muallaq va kolmatatsiyalangan zarrachalar konsentratsiyasi, muhit bo'ylab taqsimlangan modda konsentratsiyasiga mos o'zgaradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.FM/T.09.03
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ИМЕНИ ШАРАФА РАШИДОВА**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ ШАРАФА РАШИДОВА**

ЭШДАВЛАТОВ ЗАРИФЖОН ЗАФАР УГЛИ

**РЕШЕНИЕ ЗАДАЧ АНОМАЛЬНОГО ПЕРЕНОСА ВЕЩЕСТВА В
ТРЕЩИНОВАТО-ПОРИСТЫХ СРЕДАХ**

01.02.05 – Механика жидкости и газа

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2022.4.PhD/FM1800.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университета имени Шарафа Рашидова.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета (www.samdu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Хужаёров Бахтиёр
доктор физико-математических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Назаров Умарали Абдувахобович
доктор физико-математических наук, доцент

Джаббаров Мамасоли Садикович
кандидат физико-математических наук, доцент

Ведущая организация:

Ташкентский Государственный Транспортный Университет

Защита диссертации состоится «11» сентября 2026 года в 10:00 часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.FM/T.09.03 при Самаркандском государственном университета имени Шарафа Рашидова (Адрес: 104000, г. Самарканд, Университетский бульвар, 15. Тел.: (+99866) 239-11-40, факс: (+99866) 239-11-40, 239-12-47, e-mail: devonxona@samdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарафа Рашидова (регистрационный номер 56). Адрес: 140104, Самарканд, Университетский бульвар, 15. (+99866) 239-17-25.

Автореферат диссертации разослан «26» августа 2026 года.
(реестр протокола рассылки № 1 от «26» августа 2026 года.)



Р.И.Халмурадов
Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, профессор

У.А.Нишоков
Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор философии по физико-математических наук

Ж.Акилов
Заместитель председателя научного семинара при
научном совете по присуждению ученых степеней,
доктор физико-математических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире в результате роста численности населения, изменения климата, ускорения процессов урбанизации и усиления антропогенного давления все больше возрастает проблема дефицита чистой питьевой воды, особое внимание уделяется вопросам предотвращения загрязнения подземных водоемов под воздействием промышленных отходов и переноса загрязняющих веществ в составе жидкости под землей. Причина в том, что “около 30% населения мира живет в условиях “очень высокого” дефицита воды. Согласно “Докладу о мировых водных ресурсах” ООН на 2025 год, 72% ресурсов пресной воды используются в сельском хозяйстве, 15% – в промышленности и 13% – для бытовых нужд. В период с 2000 по 2021 год глобальное потребление воды увеличилось на 14%, в среднем на 0,7% в год. Горы и ледники обеспечивают 60% пресной воды в мире и являются основным источником жизни для более чем 3 миллиардов человек. Однако изменение климата, быстрое таяние ледников и деградация экосистем представляют серьезную угрозу для устойчивости водных ресурсов”³. В связи с этим особое внимание уделяется разработке математических моделей, описывающих аномальное движение различных вредных веществ в жидкости в трещиновато-пористых средах с фрактальной структурой, оценке площадей концентрации вредных частиц, определению количества вещества, переносного из трещины в пористый блок, а также разработке соответствующих вычислительных алгоритмов.

В мире проводятся широкомасштабные научные исследования по теории математического моделирования процессов аномального переноса вещества в трещиновато-пористых средах и развитию соответствующих методов расчета. Данные исследования непосредственно связаны с движением подземных вод, освоением месторождений углеводородов, геотехнологическими процессами, экологическим мониторингом и определением закономерностей распределения химических реагентов в пористых средах. В этой области, в частности, разработка математических моделей, учитывающих и не учитывающих явления адсорбции и десорбции в процессах переноса веществ, их совершенствование на основе дифференциальных уравнений дробного порядка, точное описание механизмов аномальной диффузии, использование высокопроизводительных вычислительных технологий, создание эффективных численных алгоритмов и современного программного обеспечения, а также обеспечение их точности и вычислительной стабильности являются одними из актуальных научно-практических задач.

В нашей республике проводятся широкомасштабные меры по численному исследованию процессов переноса вещества и фильтрации жидкостей в пористых средах, разработке их математических моделей и созданию эффективных вычислительных алгоритмов, служащих для решения практических задач. В стратегии развития Нового Узбекистана на период

³ The United Nations World Water Development Report 2025, Mountains and glaciers: water towers. UNESCO. 2025. ISBN 978-92-3-100743-9.

2022-2026 годы определены важные задачи, в том числе «... довести уровень обеспечения населения республики питьевой водой до 87%, обновить канализационные системы в 32 крупных городах и 155 районных центров...»⁴. В частности, важно создать эффективный алгоритм и программное обеспечение, позволяющие учитывать явления адсорбции при определении уровня загрязнения подземных вод, проводить вычислительные эксперименты по оценке влияния фрактальности среды на процессы переноса и фильтрации неоднородных жидкостей.

Указ Президента Республики Узбекистан от «О мерах по совершенствованию системы управления водными ресурсами и повышению эффективности их использования в низовом звене» ПП-5 от 5 января 2024 года, «О неотложных мерах по повышению эффективности использования водных ресурсов» ПП-107 от 1 апреля 2023 года, «О дополнительных мерах по ускоренному развитию промышленности и ее базовых отраслей» УП-169 от 12 октября 2023 года, «О мерах по созданию Образовательно-производственного кластера в нефтегазовой отрасли» ПП-309 от 7 июля 2022 года а также другие нормативно-правовые документы, касающиеся данной деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данная диссертационная работа выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в Республике Узбекистан IV. «Математика, механика и информатика».

